

INNOVATSIYON TA'LIM MUHITIDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Avezova Rohila Ruzimboyevna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası katta o‘qituvchisi,

Muminova Hosiyatxon Avaz qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14576324>

Annotatsiya. Innovatsiyon ta'lim muhitida inklyuziv ta'limni rivojlantish muhim bo'lmoqda. Maqolada innovatsiyon ta'lim muhitida inklyuziv ta'limni rivojlantish yo'llarining tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, ta'lim muassasasi, hamkorlik, ta'limni raqamlashtirish.

Аннотация. Становится важным развивать инклюзивное образование в инновационной образовательной среде. В статье представлен анализ путей развития инклюзивного образования в инновационной образовательной среде.

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагог, ученик, родитель, образовательное учреждение, сотрудничество, цифровизация образования.

Abstract. It is becoming important to develop inclusive education in an innovative educational environment. The article presents an analysis of ways to develop inclusive education in an innovative educational environment.

Key words: inclusive education, teacher, student, parents, educational institution, cooperation, digitization of

Kirish

Inklyuziv ta'lim – bu har bir bolaning, jumladan, jismoniy, intellektual, psixologik yoki boshqa maxsus ehtiyojlari bor bolalarning teng ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan ta'lim tizimi. Bu yondashuv o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularni ajratmasdan, maktabgacha ta'lim va umumiy ta'lim muassasalarida o'qitishni nazarda tutadi. Bu ta'lim shakli bolalarda o'z-o'ziga ishonchni oshiradi. Ularning ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantiradi va jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantiradi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik katta ahamiyatga egadir. Bu sohada ilg'or tajribalar va resurslardan foydalanish ko'plab mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Xalqaro tashkilotlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), YUNESKO, YUNISEF va Jahon banki kabi muassasalar inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash

va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi[4, 6]. Ushbu tashkilotlar inklyuziv ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, moliyaviy yordam ko'rsatish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va davlatlarga texnik yordam berish orqali inklyuziv ta'limning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ilg'or mamlakatlarning tajribalarini o'rganish va ular asosida milliy dasturlarni shakllantirish, xalqaro hamda mahalliy tashkilotlar orqali inklyuziv ta'lim uchun mablag' ajratish hamda grant loyihalarini amalga oshirilmoqda[4]. O'qituvchilar va mutaxassislar uchun xalqaro miqyosda malaka oshirish dasturlari, treninglar tashkil etilmoqda.

Xalqaro tajribaga asoslangan o'quv va tarbiya dasturlarini joriy etish hamda milliy ta'lim standartlariga moslashtirilmoqda. Ushbu hamkorlik orqali mamlakatlar ta'lim sifatini oshiradi, maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun qulay va mos ta'lim tizimlarini shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik milliy ta'lim tizimlariga ilg'or texnologiyalar va inklyuziv yondashuvlarni joriy etishga ko'maklashadi. Bu esa ta'lim jarayonining yanada samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilar, shu jumladan, maxsus ehtiyojlari bor bolalar uchun yanada keng imkoniyatlarni ta'minlaydigan tizimga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son farmonida "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi tasdiqlandi. Bu farmonga ko'ra O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim va tarbiya berish tizimini takomillashtirish, shuningdek, ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida 2020—2025-yillarga mo'ljallangan xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi[1].

Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvensiyaning 2 va 28-moddalarida ta'limda kamsitishni oldini olish hamda har bir bola qobiliyatiga qarab ta'lim olish huquqiga egaligi ta'kidlangan bo'lib, ular inklyuziv ta'limga tegishlidir[6]. Maxsus ehtiyojli bolalar, shuningdek, boshqa bolalar, o'qituvchi va tarbiyachilar inklyuziv ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi[7]. Abu Nasr Forobiy «Aql ma'nolari haqida»

risolasida aql masalasini chuqur talqin qilgan. U aql bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta'sir – ta'lim-tarbiyaning nati jasi ekanligini uqtiradi[7].

Muhokama va natija.

Dunyo miqyosida inklyuziv ta'lim bo'yicha olib borilayotgan islohotlar va texnologik rivojlanish tufayli bu ta'limning istiqboli umidli ko'rinadi. O'zbekistonda ham bu borada ko'plab reja va dasturlar amalga oshirilishi kutilmoqda. Yurtimizda inklyuziv ta'limni quyidagi yo'nalishlar asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'limda raqamlashtirish va texnologiyalardan foydalanish -maxsus ehtiyojlari bor o'quvchilar uchun texnologik rivojlanish katta imkoniyatlar yaratishdir. Kelajakda zamonaviy texnologiyalar yordamida maxsus ta'lim dasturlari, ovozli yordamchi vositalar, virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt (AI) tizimlari inklyuziv ta'limda keng qo'llaniladi. Masalan, sun'iy intellekt har bir o'quvchining o'quv darajasi va ehtiyojlariga qarab individual dasturlar yaratishga yordam berishi mumkin.

2. O'qituvchilar va mutaxassislarni tayyorlashdagi yangicha yondashuvlar - inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun malakali o'qituvchilar va maxsus pedagoglar tayyorlash jarayoni yanada kengaytirish. Pedagogika universitetlari va malaka oshirish markazlari orqali o'qituvchilar maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash ko'nikmalarini yaxshilashlari mumkin. Shuningdek, psixologlar, logopedlar, defektologlar kabi mutaxassislarni jalb etish va ularning imkoniyatlarini oshirish orqali har bir o'quvchiga yanada samarali ta'lim berish imkoniyati kengayadi.

3. Maxsus ehtiyojlarga moslashtirilgan infratuzilmalarni yanada rivojlantirish - ta'lim muassasalarida maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun qulay infratuzilma yaratishdan iborat, Bunda jismoniy nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus kirish yo'laklari, eshik va yo'lak kengligi, sinf xonalarida maxsus o'rindiqlar kabi moslashtirilgan sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga, maxsus o'quv jihozlari, vizual va audiovizual vositalar bilan ta'minlash ham inklyuziv ta'lim samaradorligini oshiradi.

4. Onlayn ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish yo'llari -onlayn ta'lim imkoniyatlari kelajakda maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun o'qishni yanada qulaylashtirishdir. Masofaviy ta'lim orqali bolalar uydin chiqmasdan ham ta'lim olish imkoniga ega bo'lishadi. Maxsus platformalar orqali turli o'quv materiallari va interaktiv darslar taqdim etiladi, bu esa bolalarning bilim olish darajasini oshiradi.

5. Ota-onalar hamkorligi - inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun ota-onalar va jamiyatning roli yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalar farzandlarining ta'lim jarayonida faol ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi va maxsus dasturlar orqali o'z farzandlarini qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganadilar. Shu bilan birga, jamiyatda inklyuziv ta'lim haqida tushunchani oshirish hamda nogiron bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish inklyuziv ta'limning umumiy muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

Inklyuziv ta'lim jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. U har bir bolaning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Taraqqiyotning bu yo'nalishi jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlash, nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali inson kapitalini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali jamiyatga ta'siri quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Barcha bolalar teng ta'lim olish huquqiga ega bo'lgan jamiyatda ijtimoiy tenglik oshadi. Bu esa kelajakda jamiyatda diskriminatsiya va ijtimoiy ajralishlarni kamaytiradi.

2. Inklyuziv ta'limdan foyda olgan har bir bola jamiyatda to'liq faoliyat yuritishga, o'z qobiliyatlarini amalga oshirishga qodir bo'ladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Inklyuziv ta'lim orqali bolalarda bag'rikenglik, hurmat va hamkorlik kabi ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi. Bu jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhit shakllanishiga yordam beradi.

4. Inklyuziv ta'limning rivojlanishi texnologiyalar va pedagogik metodlarning yangilanishiga turtki beradi. Bu esa ta'lim tizimining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

5. Inklyuziv ta'lim mehnat bozorida xilma-xillikni oshirib, kelajakda turli qobiliyat va ehtiyojlarga ega kishilarning faoliyat yuritishiga sharoit yaratadi. Bu iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan boy jamiyatni shakllantiradi.

6. Inklyuziv ta'lim xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatlar orasida o'zaro yordam va tajriba almashinuviga ko'maklashadi. Bu esa global miqyosda barqaror taraqqiyotga hissa qo'shadi.

Darhaqiqat, inklyuziv ta'lim jamiyatda har bir insonning qadr-qimmatini oshirish, taraqqiyotni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashga qaratilgan barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim kelajak avlodning ma'rifatli, ijtimoiy jihatdan faolligi yuqori va farovon yashashga intiladigan fuqarolar bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosalar.

Inklyuziv ta'lim — bu har bir bolaning ta'lim olish huquqini hurmat qilishga asoslangan yondashuv bo'lib, u jamiyatdagi barcha shaxslarning teng imkoniyat va sharoitlarda rivojlanishini ta'minlashni maqsad qilgan. Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun umumta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini yaratish orqali inklyuziv ta'lim ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi va jamiyatdagi kamsitishlarni kamaytiradi. Ushbu yondashuvning rivojlanishi jamiyatga keng ko'lamli foyda keltiradi — ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytiradi, yangi avlodni to'laqonli qo'llab-quvvatlaydi va kelajakda iqtisodiy jihatdan barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli jamiyat shakllanishiga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim kelajakka yo'naltirilgan ta'lim tizimi sifatida jamiyatdagi har bir inson qadrini yuksaltirishga, bilim olish jarayoniga qo'shilishiga va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga imkon beradi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim sohasida, balki umumiy jamiyat rivojida ham barqaror taraqqiyotga hissa qo'shadigan muhim yo'nalish hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, maxsus infratuzilma, malakali kadrlar va jamiyatning ko'magi bilan inklyuziv ta'lim tizimi yanada rivojlantirilib, O'zbekistonda har bir

bolaning o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon qilishi va jamiyatga muvaffaqiyatli qo'shilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son farmoni
2. Bo'ronov, F. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish istiqbollari. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim va Fan vazirligi nashriyoti. 2021.
3. Rustamova, D. Inklyuziv ta'lim va uning ijtimoiy ahamiyati. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti ilmiy jurnali- 2020 3(1), 15-20.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2006). Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiya. BMT hujjatlari to'plami.
5. Yuldashev, A. Ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvlar. Toshkent: Ma'rifat nashriyoti. 2019.
6. Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvensiya 1989 yil 20 noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44/25-sessiyasi da qabul qilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 9 dekabrda 757-XII-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingan.
7. Madatov I.Y Inklyuziv ta'lim. Darslik.; O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, 2024. – 240 b.